

ОБРАЗОВАНИЕ, НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 18
Часть-1_ Апрель-2023*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Апрель - 2023 год

ЧАСТЬ - 1



ICI JOURNALS
MASTER LIST



<http://www.newjournal.org/>



Выпуск журнала № – 18
Часть-1_Апрель-2023

“DEVONI HIKMAT” ASARINING BUXORO QO‘LYOZMA NUSXASI XUSUSIDA

H. O. Safarova,

Bux DU f.f.n., dotsent

Nazarova Gulruk,

BuxDU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
2-bosqich magistranti, Romitan tumani 18-maktab
ona tili va adabiyoti fanlari o‘qituvchisi

Annotation: Maqolada Ahmad Yassaviyning Buxoro San’at muzeyi xazinasida saqlanayotgan 16978 raqamli qo‘lyozma nusaxasi va ba’zi hikmatlar badiiyati haqida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ahmad Yassaviy, qo‘lyozma, hikmat, zikr, xattotlik, hamd, munojot, badiiylik, shayton, jom.

Xattotlik san’at darajasiga ko‘tarilgan hududlardan biri bu Buxorodir. Buxoro xattotlik maktabining yirik vakillari sifatida Mirali Hiraviy, Mir Ubayd Buxoriy, Mir Husayn Ko‘lankiy Buxoriy kabi mashhur iste’dodlar tilga olinadi. Ayniqsa, XV va XVI-asrlarda xattotlik sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishildi. Jumladan, bugungi kunda Buxoro San’at muzeyi xazinasida saqlanayotgan qator qo‘lyozma manbalar fikrimiz dalilidir. Butun jahon adabiyot xazinasiga aylangan Ahmad Yassaviy hikmatlarining ham Buxoro San’at muzeyi fondida 7 nusxasi mavjud. Shundan 3 tasi qo‘lyozma va 4 tasi toshbosma nusxalar hisoblanadi. Aynan ilmiy faoliyatimiz uchun 16978 raqam ostida saqlanayotgan qo‘lyozma asos vazifasini o‘taydi. Mazkur qo‘lyozma ustida olib borilgan izlanishlarimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Qo‘lyozma jami 84 sahifadan iborat bo‘lib, dastlabki 50 sahifada Ahmad Yassaviyning hikmatlari keltiriladi. Keyingi betlarda esa o‘z davrining yetuk darveshsifat ijodkorlaridan biri Mashrab g‘azallaridan namunalar kiritilgan.
2. Qo‘lyozma qachon va kim tomonidan ko‘chirilgani ma’lum emas, chunki, qo‘lyozma nusxa bilan tanishganda bu haqda ma’lumot berilmagan.
3. Qo‘lyozmadagi satrlar asosan o‘zbek va ba’zi bir misralar fors tilida bitilgan.
4. Qo‘lyozma tarkibidagi hikmat va g‘azallar nastaliq yozuvida bitilgan bo‘lib, ayrim o‘rinlarda shikastada yozuvidan ham foydalanilgan.
5. Sahifalari alohida betlanmagan.
6. Muqovasi kartondan, muqovada 6 ta jimjimador lavha ya’ni ramka bo‘lib, unda muqovachining ismi va muqovalangan vaqtি ko‘rsatilgan. Ya’ni, qo‘lyozma hijriy 1270, milodiy 1852-1853-yillarda sahhof Siddiq Xo‘ja tomonidan muqovalangan.

7. Qo‘lyozmaning saqlanish holati quyidagicha: dastlabki varaqlari yirtilgan, dog‘li va turli tusga kirgan sahifalari ham mavjud.

8. Munojot qismi yozilgan sahifalarning oxirgi satrlari o‘qishga yaroqsiz holga kelib qolgan.

9. Varag‘ining hajmi: 14 x 26 ni tashkil etadi.

10. Harflarning hajmi: 9 x19 holatda yozilgan.

11. Mazkur qo‘lyozma Samarqand viloyati, Samarqand tumani, Y. Oxunboboyev qishloq xo‘jaligi, Sadriddin Ayniy nomli kolxozda yashovchi M. Turaqulovdan sotib olingan.

Qo‘lyozma dastlab an’naviy tarzda “Bismillahi rahmoni rahiym” kalimasi orqali ya’ni “basmala”dan boshlangan. Muqaddimadagi to’rt bet fors tilida bitilgan. Beshinchi betdan munojot boshlanadi. Munojot o‘zbek tilida “Hazrat Sulton rohamulloh alahiy” so’zlari bilan boshlangan, ammo munojot yozilgan betning oxirgi satrlari yaxshi saqlanmaganligi uchun o‘qiy olmaydigan darajaga kelib qolgan:

Bismillohi rahmoni Rahim

Munojot ayladi miskin Xo‘ja Ahmad,

Ilohi hamma bandangni rahmat qilg‘il.

G‘arib Ahmad so‘zi hargiz qarimas,

Agar yer ostiga tushsa chirimas.

Yana mansux bo‘lib, ul xor bo‘lmas,

O‘qug‘on bandalari humor bo‘lmas.

Agarkim o‘qisa bul munojot,

Qiyomat kuni xudoyim aylagay shod.

Qiyomat kun xudoyim bo‘lsa qozi,

O‘shal kun bandadin norozi bo‘lsa,

Xudoyimdin tilab shoh qilurman,

Xaloyiqlararo ifsho qilurman.

Eshitganni qilurman anda shafqat

Jahonda ko‘rmagay bir zarra mehnat.

Xudoyim qilib in’om menga Jannat,

Eshitganni qilay anda shafoat.

Ma’lumki, munojot sharq mumtoz adabiyotining an’naviy hodisotlaridan biri sanaladi. Mazkur qism najot umidi, tavba va iltijolar tangriga otashin murojaat shaklida yaratiladi. Odatda, lirk asarlarning muqaddima qismida Allohga hamd va payg‘ambarga na’t qismidan keyin keltirilgan bo‘lsa, mavjud qo‘lyozmada ham Allohga hamd va payg‘ambarga na’t, keyingi o‘rinda munojot keltiriladi. Qo‘lyozmaning oltinchi betidan boshlab hikmatlar o‘rin olgan. Masalan:

Yaratqon borning yo‘lin izlab,

Shaytoni lain yo‘llaridin qoching, do‘stlar,

Ixlos birla muhabbatning jomin olib,
Jon dilda haq zikrini aytинг do‘stlar.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida tasavvuf g’oyalari singib ketgan. Yuqoridagi misralarda esa ijodkor doimo Alloh ko‘rsatgan yo‘ldan borib, shaytoni laining izmidan chekinishga, yurakda Allohga muhabbatni va ixlosi bilan Alloh zikrida bo‘lishga undaydi. Ayni bu undov keyingi hikmatlarda ham yetakchilik qiladi:

Haq zikrini aytgan ichar jomi sharob,
Yo‘l ustida aziz boshi misli turob,
Alloh uchun hol xarob, bag‘ri kabob,
Jon dilda haq zikrini aytинг do‘stlar.

Adabiyotda jom atamasi keng qo‘llaniladi. Jom tasavvufiy atama sifatida ma’rifat bodasidan to‘la orifning dili va ahvoli tushuniladi. Yuqoridagi baytda Haq zikrini aytgan kishi qancha to‘sqliarga duch kelmasin, yo‘l ustida aziz boshi turob ya’ni tuproq kabi kamtar, xokisor bo‘lganda, Alloh oldida ahvoli yomon va bag‘ri kabob bo‘lganda ham jon-u dildan haq zikrida bo‘lishi ta’kidlanadi.

Ostonaga boshim qo‘yib zori qilg‘il,
Halqa olib kim zikr aytsa,
Zikrin aytib halqa ichra durlar tergil,
Jon dilda haq zikrini aytинг do‘stlar.
Alloh degan qand-u asal paydo qildi,
Jon dildin haq yo‘lida shaydo qildi,
Amal qilg‘on olimlarni dono qildi,
Jon dilda haq zikrini aytинг do‘stlar.

Hadislarda ilm o‘rganuvchi va ilm o‘rgatuvchilar uch guruhga ajratiladi: mo‘min, fosiq va kofir. Hikmatlarning ham kelib chiqish asosi hadislar bo‘lganligi yuqoridagi baytlarda o‘z ifodasini topadi. Alloh deb zikr keltirgan insonning hayoti qand va asal kabi totli bo‘lishi, o‘z ilmiga amal qilgan mo‘minlarni olim-u dono bo‘lishi qalamga olinsa, quyidagi hikmatlarda esa ilmiga amal qilmaydigan olimlar, ilmiga amal qiluvchilardan bir pog‘ona pastda turishi, hatto o‘lim topganida ham do‘zaxda jonining kuyishi, shunday vaziyatda amalsiz ya’ni Allohnini zikr aylamaydiganlar qay yo‘ldan borishlari mumkinligi, har qanday vaziyatda ham Alloh zikrida bo‘lish kerakligi aytib o‘tiladi.

Amal qilmas olim ilmin past deb yurgay,
Tana borsa tor lahadda jonin kuygay,
Vo hasrato amalsizlar nechuk qilg‘ay,
Jon dilda haq zikrini aytинг do‘stlar.

Bugungi kunda Ahmad Yassaviy hikmatlarining hayotiyligi, hayotiy tajribalar orqali bitilganligi bilan sharq-u g‘arbni o‘ziga mahliyo etadi. Qo‘limizdagi mazkur noyob qo‘lyozmada Ahmad Yassaviy misralarida yashirin sir-u asrorlar vaqt o‘tib o‘z

muxlislarini topadi. "Devoni hikmat" insonni nafsparastlikdan, ma'rifatsizlik va yirtqichlashuvdan muhofaza etadi. Shuningdek, odam farzandini shaytoniy hiylalar, hayvoni quturishlardan asraydi. Bu bebaho asar hirsu havoga berilishdan, kulfat va musibatlardan ogohlantiradi. Hamma gap uni qanday o'qish, qanday anglash va anglabgina qolmasdan Yassaviy so'zlariga amal ham qila bilishdadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. 17-39-betlar.
2. Toji Qorayev. Tanlangan asarlar. Yassaviy ixlosi. Maqolasi.
3. Natan Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. O'qituvchi. 1965.
4. Abdurahmon Go'zal. Yassaviy faqrnomasi. Toshkent. Navro'z. 2014. 15-18-betlar.
5. Turkiyada Yassaviyshunoslik. Qul Xoja Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi, tariqati mavzusida turk yassaviyshunoslari bilan o'tkazilgan suhbatlar to'plami. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1999. 5-10-betlar
6. M. Eshmuhamedova. "Devoni hikmat" qo'lyozmalari tavsifi. Toshkent. ToshDSHI. 2003. 5-6-betlar
7. Buxoro Can'at muzeyida saqlanayotgan 16978 raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma.